

SHAXS TARAQQIYOTIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Yuldasheva Sojida Zoyirovna
O'zMU Jizzax filiali "Oila psixologiyasi"
kafedrasi o'qituvchisi
Sadinova Luiza Normurodovna
Tursunova Nazira Fayzulla qizi
O'zMU Jizzax filiali talabalari

Kalit so'zlar: shaxs, individ, individuallik, ijtimoiy muhit, irsiyat, ijtimoiy omillar.

Shaxs nima? Bu so'z insoniyat madaniyatida taxminan 300 yil oldin paydo bo'lgan. J.Brunerning fikricha, XVIII asrga borib taqaladigan "o'z-o'zi" tushunchasidan foydalanishni "shaxs" tushunchasining kelib chiqishining belgisi deb hisoblash mumkin.

Psixologiyada shaxsning ko'plab ta'riflari mavjud. Bu ta'riflarning ko'pchiligi uyg'unlik, belgilar tizimi, birlik, barqarorlik, ijtimoiylik, individuallik (yaxlitlik, o'ziga xoslik), ichki Men (avtonomiya, ijodkorlik) kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ko'pincha shaxs ong va o'zini anglash orqali namoyon bo'ladi.

Shveysariyalik olim Rishar Meyli: "Shaxs deganda, har bir insonni tasniflaydigan psixologik xususiyatlarning yig'indisini tushunamiz. Kengroq ma'noda, shaxs termini xarakter, temperament, qobiliyatni o'z ichiga oladi".

Lekin shaxs – bu faqatgina xususiyatlarning yig'indisi emas. Gap quyidagi xususiyatlar o'zaro ta'sirda o'ziga xos psixologik markazni, psixikaning o'ziga xos sifati, menlik, o'z individual xususiyatlarini anglashni yoki A.Maslou, E.Erikson va boshqa psixologlar tasdiqlagan xususiyatlar haqida bormoqda. Bundan kelib chiqib, SHAXS deb o'zining menligiga ega bo'lgan, o'z irodasi orqali o'zini boshqara oladigan va hatti-harakatini nazorat qila oladigan odamga aytiladi.

Inson tabiatini o'rganishdagi eng dolzarb muammolardan biri ijtimoiy-biologik muammodir. Odam haqida gapirilganda bu so'zning uch xil mazmunini nazarda tutish mumkin: odam biologik tur sifatida - Homo sapiens, odam individ sifatida va odam ijtimoiy uyushgan insoniyat sifatida. Bizning muhokamamiz uchun predmet shaxs tushunchasi ekan, ijtimoiy-biologik munosabatlar nuqtai nazaridan insonni individ sifatidagi jihatlari muhim ahamiyatga egadir. Shaxs va individning munosabatlari bilan bog'liq muammo shaxs psixologiyasining eng muhim va qiziqarli masalalaridan biridir.

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ (lotincha individ ajralmas, alohida zot degan ma'no anglatadi), shaxs, individuallik (yakkahollik) tushunchalari

orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom (esi-hushi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi. Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri - bu uning individualligidir, ya'ni yakkaholligidir. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyatlar motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Psixik xususiyatlarning birikmasini aynan o'xshash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas. Biroq biologik mavjudot bo'lish bilan birga individ ayni paytda ijtimoiy mavjudot hamdir. Ijtimoiy mavjudot sifatida individ, bir tomondan turli-tuman ijtimoiy komponentlarning o'zaro kesishuvi bo'lsa, ikkinchi tomondan insoniyat tuzilmasining noyob, o'ziga xos borlig'idir. Shunday qilib, «individ» tushunchasi uning bo'linmasligi, yaxlitligi, alohida subyektga xosligi, alohida tabiiy mavjudotligi, uzoq davom etgan taraqqiyot mahsuli, individual sifatning tashuvchisi ekanligini ifodalaydi. Individ o'zida odamning ham biologik, ham ijtimoiy xususiyatlarini namoyon etadi.

Shaxsning xulqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga qarab uchta yondashuvni ajratish mumkin: psixodinamik, sotsiodinamik va interaksionistik.

Psixodinamik nazariya shaxsning xulqini uning psixologik yoki ichki xarakteristikasi bilan bog'lab tushuntiradi.

Sotsiodinamik nazariyaga ko'ra esa shaxs xulqining asosiy determinanti tashqi muhitdir. Ular shaxsning ichki xususiyatlariga katta ahamiyat bermaydilar.

Interaksionistik nazariya tarafdorlari inson faoliyatini va xulqini boshqarishda ichki va tashqi omillarning roli o'zaro bog'liq ekanligini qayd etadilar.

Shaxsni o'rganish va u haqda ma'lumotlar to'plash usullariga nisbatan ikkiga ajratish mumkin: eksperimental va noeksperimental yondoshuv.

Eksperimental nazariya tarafdorlari shaxs haqida ma'lumot to'plash uchun albatta ma'lum bir yo'l orqali tadqiqot o'tkazish, uning natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish shart deb hisoblaydi.

Noeksperimental nazariya vakillari esa shaxsni hayotiy vaziyatlar jarayonida kuzatib, u haqdagi fikrlari va hayotiy tajribalarga tayangan holda xulosalar yasash mumkinligiga ishonch bildiradilar va tajribalarga murojaat etish shart emas deb hisoblaydilar.

Psixologiya shaxsning ma'naviy qiyofasida, uning psixik faoliyatida, uning xatti-harakatlari va xulq-atvorida aks etadigan tomonini o'rganadi. Lekin hamisha shuni unutmasligimiz kerakki, shaxs tushunchasi - bir butun yaxlit tushunchadir. Odamning

ma'naviy qiyofasini chuqur bilish uchun uning faqat psixik xususiyatlarini o'rganishgina emas, balki shaxsni fuqaro sifatidagi, jamoat arbobi sifatidagi xususiyatlarini va shu kabi tomonlarini ham yaxshi tasavvur etish zarur. Ayniqsa, har qanday ayrim psixik jarayonni yoki shaxsning ayrim xususiyatini (masalan, kuzatuvchanlik, iroda, xarakterini) umuman odamning ma'naviy qiyofasi xarakteristikasi bilan bog'lamay turib o'rganib bo'lmaydi.

Ehtiyojlarni rivojlantirish, tanlash va tarbiyalash ularni hozirgi jamiyat kishisiga xos bo'lgan ma'naviy yuksaklik darajasiga olib chiqish kishi shaxsini shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shaxsning shakllanishi jamiyatda ro'y beradi. Individning shaxs bo'lishi yangi jamiyatni qurishning faol ishtirokchisi bo'lish kabi ehtiyoji aynan jamoada to'laqonli qondiriladi.

Shaxsning shakllanishida unga maqsadga yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazish, tarbiya yetakchi rol o'ynaydi. Tarbiya shaxsni rivojlantirishning jamiyat tomonidan qo'yilgan maqsadlarda muvofiq tarzda yo'naltirib boradi va uyushtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla, Sharafitdinov, and Yuldasheva Sojida Zoyirovna. "ZAMONAVIY AXBOROTLASHTIRISH JARAYONLARINING SHAXS INDIVIDUAL XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 432-436.
2. Zoirovna, Yuldasheva Sojida, and Nizomov Bekhruz Umarovich. "PSYCHOLOGY OF TRUST AND SECURITY." *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences* 1.12 (2022): 153-161.
3. Yuldasheva, Sojida. "IA KARIMOV ASARLARIDA YUKSAK MA'NAVIYATLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISH G'OYALARI." *Журнал Педагогике и психологии в современном образовании* 1.4 (2021).
4. Zubaydullaevna, T. N., Zoirovna, Y. S., Ugli, N. B. U., & Kizi, A. M. E. (2023, January). CONSIDERATION OF PSYCHOLOGICAL WAYS IN QUICK MEMORIZATION PROCESS ENGLISH LANGUAGE. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 29-35).
5. Юлдашева Сожида, & Мирзаахматов Абдурахмон. (2023). МОЛОДЕЖНАЯ КИБЕРПСИХОЛОГИЯ. ВРЕД И ПОЛЬЗА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ ДЛЯ СОВРЕМЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 348–354. Retrieved from <https://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/453>
6. Zoyirovna, Y. S., & Narziyevna, T. M. (2023). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH NAZARIY ASOSLAR

7. Юлдашева, С. З. (2023). ОИЛАЛАРНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ.
8. Юлдашева, С., Бехруз, Н., & Эшматов, У. (2023). КИБЕРПСИХОЛОГИЯ СОВРЕМЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ. ВРЕД И ПОЛЬЗА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 321-326.
9. Nigora, S., Go'zal, Q., & Shoxista, Z. (2023). О 'SMIR QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA OILANING ROLI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 330-333.
10. Nigora, S., & Munisa, O. K. (2023). SHAXSLARARO MULOQOTDA UCHRAYDIGAN QIYINCHILIKLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 327-330.
11. Nigora, S., Ilmira, Y., & Zulxumor, X. (2023). TORTINCHOQLIK VA UNING PSIXOLOGIK SABABLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 323-326.
12. Hakimova, S. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar oniga ta'siri. Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammolari va yechimlari .